

Bonu

"Bir kun"

Visit "[Bir kun](#)" on MotoLyrics.com

Azobim bo'g'zimga tiqiladi har kun,
Unutolmay qalbim qiynalar tunu kun,
Ko'p qildim harakat, unutmadi bir zum,
Bu bergan azobing senga qaytar bir kun.
Mana, yillar o'tib, sevib ham sevildik,
Sevganning bag'ridan buncha tez quvildik,
Bilmay, ko'rmay, sezmay, zarra ham achinmay,
Ayblamagin deya, sen meni xor etding...
Ketma, ketma, meni tark etma,
Ketma, ketma, meni xor etma.

Qanday endi yashay, ayt, qanday unutay?
O'chiksiz sog'inchga, ayt, qanday ko'nikay?
Ko'z oldimda sensan, xayolimda sensan,
Yurakdan surating, ayt, qanday o'chiray?
Asragan qalbimni men senga bergandim,
O'sha qalbim kabi seni asragandim,
Ko'rib, bilib turib ishonchim so'ldirding,
Sevganimsan deya sen meni zor etding..
Ketma, ketma, meni tark etma,
Ketma, ketma, meni xor etma.

Bir zamon o'tmadi, xayoldan ketmading,
Senga ma'lum emas dardim, azoblarim,
Suratga jamlab javobsiz savollar,
Yolg'iz o'zimni ayblab, o'zimni qiynadim.
O'rarguv qiynoqdan vujudim titroqda,
Ko'z yosh to'la ko'zlar kimnidir izlaydi,
Bir inson tasviri yolg'iz nigohimda,
Afsus, ming afsuslar, izlab, topolmaydi.
Ketma, ketma, meni tark etma,
Ketma, ketma, meni xor etma.

O'sha bir kun kelib, sen meni sog'inib,
Hijronli kunlarni birma bir sanaysan,

Yolg'iz yuraging-la bir menga talpinib,
Qora kunlar ichra zor bo'lib izlaysan.
... Mana, yillar o'tib, sevib ham sevildik,
Sevganning bag'ridan buncha tez quvildik,
Bilmay, ko'rmay, sezmay, zarra ham achinmay,
Ayblamagin deya, sen meni xor etding...
Ketma, ketma, meni tark etma,
Ketma, ketma, meni

Visit [Bonu](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.

[MotoLyrics.com](#) | Lyrics, music videos, artist biographies, releases and more.